
VAZIRNING TASHRIFI

Joriy yilning 12 may kuni Rishton tumani “Dorul-Omon” MFY, B. Roshidoniy ko’chasi, 78-uy manzilida joylashgan “I HOUSE” yuqori texnologiyalar maktabi (o’quv markazi)ga O’zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh. Shermatov tashrif buyurdi. AKT vazirligi, IT PARK vakillari tomonidan ushbu o’quv muassasasida yaratilgan sharoitlar, o’quv dasturlari va kelgusi rejalar haqida fikr almashinildi. Hozirgi kunda “I HOUSE” yuqori texnologiyalar maktabi tomonidan kompyuter savodxonligi, dasturlash, grafik dizaynerlik, 3D modellashtirish, yo’nalishlarida o’quv kurslari tashkil etilgan. Bundan tashqari xalqaro xizmat ko’rsatish eksportini yo’lga qo’yish yuzasidan ham o’zaro samarali muloqot bo’lib o’tdi. “I HOUSE” tomonidan ushbu yo’nalishda ham faoliyat olib borish uchun amaliy rejalar ishlab chiqilgan. AKT vaziri Sh. Shermatov kelgusida ham vazirlik tomonidan o’quv muassasasining faoliyati qo’llab-quvatlanishini bildirdi.

2022-05-12 17:51:24